

KO'CHIRISH SIYOSATI VA PAXTA MONOKULTURASINING SIRDARYO VA JIZZAX VILOYATLARI TARIXIY-DEMOGRAFIK RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Umurzoqov Farhod Odil o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti, magistratnti

e-mail; umurzoqovf4@gmail.com

+99893-884-36-16

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18181795>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida sovet davrida amalga oshirilgan ko'chirish siyosatining tarixiy-demografik oqibatlari tahlil qilinadi. Mirzacho'l hududlarining egallanishi, yangi shahar va tumanlarning tashkil etilishi, paxta yetishtirish va qishloq xo'jaligi ishlariga aholi ko'chirilishi jarayonlari tarixiy manbalar asosida ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, viloyatlar aholisining demografik tarkibi, jinsiy va yosh tarkibidagi o'zgarishlar, migratsiya jarayonlarining ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri muhokama qilinadi. Maqola, sovet davrida paxta yetishtirish siyosati va mehnat resurslarini taqsimlash bo'yicha qabul qilingan qarorlarning viloyatlar rivojiga qanday ta'sir qilganini tahlil qiladi.

Annotation. This article analyzes the historical and demographic consequences of the relocation policies implemented during the Soviet era in the Sirdaryo and Jizzakh regions of Uzbekistan. The study examines the settlement of the Mirzacho'l areas, the establishment of new cities and districts, and the relocation of populations for cotton cultivation and agricultural work based on historical sources. Additionally, it discusses the demographic composition of the regional populations, changes in gender and age structure, and the socio-economic impact of migration processes. The article evaluates how Soviet-era cotton cultivation policies and labor allocation decisions influenced the development of these regions.

Kirish. XX asrning 50-yillaridan boshlab O'zbekistonda paxta yetishtirish Sovet Rossiyasining markaziy iqtisodiy va siyosiy vazifa sifatida belgilandi. Sovet davri hokimiyati hukmronligining dastlabki yillaridan boshlab qishloq xo'jaligida ishlab chiqaruvchi kuchlarni samarali joylashtirishga kata etibor qaratdi. Bu jarayonlarda Mirzacho'l hududlarini egallash, yangi shaharlar va tumanlarni tashkil etish hamda mehnat resurslarini ko'chirish muhim o'rin tutardi. 1918 yil may oyida V.I. Lenin tomonidan imzolangan dekret Mirzacho'l va Dalvarzin cho'llarini o'zlashtirish hamda bu hududlarda sug'orish tizimlarini barpo etishning asosiy bosqichlarini belgilab berdi. 1950-yillar o'rtalarida respublikada paxta yetishtirishning sur'ati pasaydi va bu ayniqsa qishloq xo'jaligi ishchi kuchi yetishmovchiligi keskin sezila boshladi. Shu sababli Mirzacho'l hududlariga turli viloyatlardan, shuningdek ittifoqdosh respublikalardan minglab ishchi kuchi ko'chirish ishlari bopshlandi. Bu jarayon bilan Sovet ittifoqi yangi shaharlar va tumanlarning shakllanishiga, paxta yetishtirish va qishloq xo'jaligi ishlarining rivojlanishini sezilarli darajada oshira boshladi.

Kalit so'zlar. Mirzacho'l, ko'chirish siyosati, Sirdaryo viloyati, Jizzax viloyati, demografik o'zgarish, migratsiya, Melioratsiya va irrigatsiya, Sovхоз va kolxozlar Infratuzilma va yashash sharoitlari

Muhokama va natijalar. 1950-yillarda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi rivojlanishida inqiroz belgilari kuzatildi. Paxta yetishtirish rejalarining ortiqcha oshirilishi, ishlab chiqarishda qo'l mehnatiga haddan tashqari tayanish va texnika yetishmovchiligi hosildorlikning pasayishiga olib keldi. Shu sharoitda Mirzacho'l va unga tutash hududlarga mehnat resurslarini ko'chirish siyosati markaziy o'rin tutdi. 1956–1962 yillarda minglab mexanizatorlar, qurilish

ishchilari va mutaxassislar Mirzacho'lga safarbar qilindi. Ushbu jarayonda maktab bitiruvchilari, komsomol yoshlar va ittifoqdosh respublikalardan kelgan mutaxassislar o'z hissasini qo'shdi. Bu ko'chirishlar nafaqat yangi yerlarni egallash, balki iqtisodiy va ijtimoiy hayotni rivojlantirishga ham xizmat qildi. Yangiyer shahrining tashkil etilishi ko'chirish siyosatining eng muhim natijasi bo'ldi. Dastlab 25 ming aholi uchun uy-joy va infratuzilma yetarli darajada tashkil etilmadi, ko'pchilik palatkalar va yer to'lalarida yashashga majbur bo'ldi. Shu bilan birga, yangi hududlarga ko'chirilgan aholi paxta yetishtirish va qishloq xo'jaligi ishlarida faol qatnashib, hudud iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Bu jarayon ayniqsa Sirdaryo viloyatining yangi ochilgan Bo'yovut va Sardoba massivlarida sezildi.

1970-yillarda Jizzax viloyatida paxta monokulturasini mustahkamlash va ishchi kuchini yetarli darajada ta'minlash maqsadida tog'li va tog'oldi tumanlardan minglab aholi yangi tashkil etilgan Mirzacho'l, Paxtakor va Arnasoy tumanlariga ko'chirildi. 1973–1976 yillarda Jizzax viloyatida jami 54 301 kishi migratsiya jarayonlarida ishtirok etdi. Shu davrda erkaklar ulushi ortib, jinsiy tarkibda nomutanosiblik yuzaga keldi. Masalan, 1970 yilda Jizzax viloyatida 1000 ayolga 960 erkak to'g'ri kelsa, 1979 yilda bu ko'rsatkich 1000 ayolga 992 erkakka yetdi. Bu holat hududdagi mehnat resurslarini taqsimlash va qishloq xo'jaligi ishlarining samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Sirdaryo viloyatida ham migratsiya jarayonlari keng ko'lamda kechdi. Respublika viloyatlaridan tashqari, Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston kabi ittifoqdosh respublikalardan kelgan mehnat resurslari viloyatning iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin egalladi. 1972-yilda viloyat qishloqlariga kelgan aholining statistik ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, eng ko'p kelganlar Samarqand viloyatidan bo'lib, ularning asosiy qismi qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun ko'chirilgan. Kelganlar orasida erkaklar ulushi ko'proq bo'lib, qishloq xo'jaligi va qurilish ishlarida faol qatnashdilar. Shu bilan birga, ko'chirilganlarning bir qismi yashash sharoitining og'irligi, ijtimoiy infratuzilmaning yetarli darajada emasligi va boshqa omillar sababli o'z yurtlariga qaytib ketdi. Masalan, Rossiya va Qozog'istondan kelgan mutaxassislarning katta qismi, shuningdek, Toshkent shahridan Mirzacho'lga jo'natilganlar qaytib ketgan. Umuman olganda, Mirzacho'l hududlarining egallanishi yangi shaharlar va tumanlar paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Shu bilan birga, ko'chirish siyosati demografik holatga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Sirdaryo viloyatida kelgan aholining asosiy qismi rus millatiga mansub bo'lsa, Jizzax viloyatida qozoqlar va boshqa millatlar ko'proq edi. Bu hududlarda jinsiy va yosh tarkibidagi nomutanosiblik, shuningdek, migratsion oqimlarning intensivligi qishloq xo'jaligi va ijtimoiy tizimlarga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Shu tariqa, ko'chirish siyosati va paxta yetishtirishga yo'naltirilgan mehnat resurslarini taqsimlash viloyatlarning demografik va iqtisodiy holatida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bu o'rinda shuni qayd etish kerakki, ko'chirilgan mahalliy millat vakillarining Mirzacho'lga kelguniga qadar an'anaviy xo'jalik yuritish asoslari haqida, shuningdek, dehqonchilik madaniyatidan xabardor bo'lsa ham, ular mutlaqo boshqa bir geografik tabiiy muhitda bo'lishgan edi. Masalan, Turkiston tog' tizmasi adirlaridan ko'chirilgan aholining xo'jalik hayotida chorvachilik yetakchi o'rin tutib, lalmikor dehqonchilik bilan ham shug'ullanishgan. Turli etnos vakillari Mirzacho'lda majburiy o'rnashdilar va tabiat bilan bog'liq holda yashab qolish uchun kurashdilar. Jizzax viloyatining 1973-1976 yillardagi migratsiyasida 54 301 kishi qatnashgan bo'lib, shulardan 58,2 foizi ko'chib kelgan bo'lsa, 41,7 foizini ko'chib ketganlar tashkil qilgan. Jizzax viloyatining yangi o'zlashtirilayotgan hududlariga, asosan tog'li hududlar — Zomin, Jizzax, G'allaorol, Baxmal va Forish tumanlaridan aholi paxtachilikni

jadallashtirish, hosil miqdorini oshirish uchun ko'chirildi. Tahlil qilinayotgan yillarda Sirdaryo va Jizzax viloyatlari hududlariga respublikadagi viloyatlar va ittifoqdosh respublikalardan ko'plab aholi ko'chirib keltirildi. Lekin, ularning bir qismi yashash sharoitining og'irligi, ijtimoiy infratuzilmaning talab darajasida bo'lmaganligi va boshqa omillar sababli o'z yurtlariga qaytib ketdilar. Ko'chib kelganlar orasida Sirdaryo viloyatida rus millatiga mansub aholi ko'proq bo'lsa, Jizzax viloyatida qozog' millati vakillari boshqalarga nisbatan ko'proq edi. Bu jarayon tabiiyki o'rganilayotgan ushbu viloyatlardagi demografik va migratsion jarayonlarga ta'sir o'tkazgan edi.

Xulosa. O'zbekiston hududida sovet hukmronligining dastlabki yillaridan boshlab paxta yetishtirish va qishloq xo'jaligini rivojlantirishga katta ahamiyat berildi. Markaziy hukumat paxta hosildorligini oshirishni birlamchi vazifa sifatida belgilab, hukumat darajasida qat'iy qarorlar qabul qildi. Shu munosabat bilan XX asr 50-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab Mirzacho'lning qo'riq yerlarini egallash bo'yicha bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi.

Mirzacho'l hududlariga ko'chirish siyosati natijasida Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida yangi shaharlar va tumanlar tashkil etildi. Ko'chirilgan aholi paxta yetishtirish va qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilindi, bu hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shdi. Shu bilan birga, yashash sharoitining og'irligi, infratuzilmaning yetishmasligi va ekologik muammolar demografik holatga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ko'chirish siyosati viloyatlarda jinsiy va yosh tarkibidagi nomutanosibliklarni yuzaga keltirdi, mehnat resurslarini samarali taqsimlashni talab qildi. Sirdaryo viloyatida rus millatiga mansub aholi ko'proq bo'lsa, Jizzax viloyatida qozoqlar va boshqa millatlar ustunlik qilgan. Natijada viloyatlarda qishloq xo'jaligi rivojlanishi bilan birga, demografik o'zgarishlar ham sezildi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abdullaev X.S. Sirdaryo oblasti. – Toshkent: O'zbekiston, 1976. - 119 b.
2. Mirzacho'l va Sirdaryo viloyatlarining tarixiy-demografik ma'lumotlari, Tashkent, 1985.
3. 1619-fond – O'zbekiston SSR Markaziy statistik boshqarmasi. A. Karimov, "Ko'chirish siyosati va demografik o'zgarishlar", Samarkand, 1998.
4. S. Yusupov, "Mirzacho'l hududlarining iqtisodiy rivojlanishi", Jizzax, 2005.
5. Abdurahmonov X. O'zbekistonda qariyalarni ijtimoiy himoya qilishning demografik asoslari. Iqtisod fan. nomzodi...diss. – Toshkent, 2007. - 159 b.